

# Silga qarshi emlash

Sil – bu ko'pgina mamlakatlarda tarqalgan kasallikdir.

Silga qarshi vaksinatsiya sil Shvetsiyaga qaraganda keng miqyoslarda tarqalgan mamlakatlarda tug'ilgan oilalarning bolalariga tavsiya etiladi.

Sil – bu bakteriya tomonidan chaqiriluvchi infeksiya bo'lib, u yo'talda havo-tomchi yo'li bilan tarqaladi. Ko'pincha o'pkalar shikastlanishini chaqiradi, ammo tananing boshqa qismlarini ham shikastlashi mumkin. Ko'pchilik holatlarda kasallik asta-sekin rivojlanadi, simptomlari: doimiy yo'tal, ozib ketish va tirishish. Infeksiya, shuningdek, o'zi haqida belgi berishdan avval, ko'p yillar davomida organizmda «uxlagan» holatda bo'lishi mumkin. Sil «uyqu holatida» bo'lgan vaqtida u xavfli emas.

Shvetsiyada sil kam uchraydigan kasallik hisoblanadi. Shu sabab bo'yicha emlash odatda faqat zararlanishning yuqori xavfiga ega bo'lgan bolalarga, masalan, sil tarqalgan mamlakatda oila a'zolari bo'lgan bolalarga taklif etiladi.

## **Emlash qanday himoyani ta'minlaydi?**

Vaksina – BSJ nomiga egadir, kichkina bolalarni silning og'ir shakllaridan, masalan, o'pkadan tashqari sil deb nomlanuvchi meningtdan himoya qiladi. Vaksina, shuningdek, katta yoshdagi bolalarda o'pka silidan yaxshi himoyani ta'minlaydi.

## **Nojo'ya reaksiyalar minimumga keltirilgan**

BSJ vaksinasiga og'ir reaksiyalar juda kam hollarda uchraydi Tirishish, bosh og'rig'i yoki qo'ltiq osti chuqurliklarida limfatik tugunlarning kattalashishi ehtimoli bor. Kam uchraydigan holatlarda uzoq vaqt davomida bitadigan ancha yirik yara bo'lishi mumkin.

## **Ko'proq bilishni xohlaysizmi?**

Siz har doim pediatriya markaziga murojaat qilishingiz mumkin. Siz quyidagilarda ko'proq bilib olishingiz mumkin:

- [1177.se](http://1177.se)
- [Folkhalsomyndigheten.se](http://Folkhalsomyndigheten.se)
- [Lakemedelsverket.se](http://Lakemedelsverket.se)



Folkhälsomyndigheten

## **BIR XIL VAKSINATSIYA QO'LLANILADI**

Vaksinatsiyadan oldin [Folkhalsomyndigheten.se](http://Folkhalsomyndigheten.se) Vaksinatsiyadan oldin pediatriya bo'linmasining tibbiyot hamshirasini (<«BHV» tibbiyot hamshirasini) bolaning umumiy holatini tekshirishi kerak Shu sabab bo'yicha, bolaning boquvchisi sifatida, sizga bir nechta savollarga javob berishingiz kerak bo'ladi. Agar Sizda vaksinatsiya masalasi bo'yicha savollar hosil bo'ladigan bo'lsa, Siz ularni pediatriya bo'linmasi tibbiyot hamshirasiga berishingiz mumkin.

## **Vaksinatsiya**

Odatda, silga qarshi vaksinatsiya bolangizga 6-haftalik yoshida o'tkaziladi. Vaksina chap yelkaning tepe qismiga teri ostiga emlash bilan kiritiladi.

Vaksinatsiyadan keyingi davr Vaksinatsiya terida yengil qizarishni keltirib chiqaradi, vaksinatsiyadan keyin ikki-to'rt haftadan keyin esa emlash joyida katta bo'Imagan o'Ichamda po'rsildoq hosil bo'ladi. Po'rsildoq kattalashadi va qizaradi, bir qancha vaqtdan keyin ichidan yiring ajralib chiqishi mumkin bo'lgan yaracha bo'lib qoladi. Yaracha odatda 3-4 oy davomida mustaqil bitib ketadi. Yaracha bitgunga qadar, bolaga vannalar qabul qilish tavsiya etilmaydi. Ba'zi bolalarda hech qachon yarachalar bo'lmaydi, faqat bir necha oy larda g'oyib bo'ladigan po'rsildoq bo'ladi.

